
Etnik tarix muammosi: nazariy – metodologik qarashlar (qo'ng'irov urug'i etnik tarixi misolida)

Usmonov Murtoz

m.usmonov@mail.ru

PhD, dotsent

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada etnik tarix muammosining nazariy va metodologik asoslari, xususan Qo'ng'irov urug'i etnik tarixi misolida, etnik guruhlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va identifikatsiyasi bilan bog'liq nazariy yondashuvlar va metodologik usullarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqola etnik tarixni o'rganishda foydalaniladigan asosiy nazariy qarashlar, etnik identifikatsiya, etnogeneziya va etnik rivojlanish jarayonlari, hamda ularni tadqiq qilishda qo'llaniladigan metodologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar *Etnografik guruh, etnik guruh, etnos, subetnos, qo'ng'irov – "qo'shtamg'ali", "vaxtamg'ali", "oyinli", "xonjig'ali", "tortuvli", urug', qabila, elat, millat, xalq, qishloq, oqsoqol, etnonim, (tira, to'por, to'p, ota, daha), urug'doshlik (avlod, urug', otadosh, pusht, nasil, aymaq, jigardosh), el, yurt ya'ni "qo'ng'irov eli" yoki "Boysun – qo'ng'irov yurti, Jiydali – Boysun, kapa, chayla, lochig'.*

Проблема этнической истории: теоретико – методологические взгляды (на примере этнической истории семян кунгирата)

Усманов Муртоз

m.usmonov@mail.ru

PhD, доцент

Каршинский государственный университет

Аннотация *В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы этнической истории, особенно на примере этнической истории рода Кўнғ'ирот, анализируются теоретические подходы и методические методы, связанные с происхождением, развитием и идентификацией этнических групп. Статья показывает, что основные теоретические взгляды, такие как этническая идентификация, этногенез и процессы этнического развития, а также используемые в исследованиях методологические подходы, имеют важное значение для изучения этнической истории.*

Ключевые слова *Этнографической группа, этнической группа, этнос, субэтнос, кунграт – "коштамгали", "актамгали", "аинли", "ханжигали" и "тортувли", племя, род, народность, нация, кишлак, аксакал, этноним, "эл" (народ, люди, племя, род, страна), "юрт" (страна, край, родина), Байсун – родина кунгратов, Джидели – Байсун, капа, лочиг (летовки для временного жилья).*

The problem of ethnic history: theoretical-methodological views (on the example of the ethnic history of the corn seed)

Usmanov Murtoz

m.usmonov@mail.ru

PhD, associate professor
Karshi State University

Annotation *This article examines the theoretical and methodological foundations of ethnic history, with a particular focus on the example of the ethnic history of the Qo'ng'iro't tribe. It analyzes the theoretical approaches and methodological methods related to the origin, development, and identification of ethnic groups. The article demonstrates that the main theoretical perspectives, such as ethnic identification, ethnogenesis, and processes of ethnic development, as well as the methodological approaches used in research, are of significant importance for the study of ethnic history.*

Keywords *Ethnographic group, ethnic group, ethnos, kungrat, subethnos ethnology, tribe, nation, aksakal, nationality, village, country, land, homeland, Boysun-kungrat country, Jiydali-Boysun, kappa, tent, lochig (change houses for temporary housing).*

Kirish

Etnologiya fanida xalqlar hayot tarzi bilan bog'liq ko'plab terminlar va nazariy masalalar borki, ularni tadqiq etmasdan turib etnik tarix borasida fikr bildirish qiyin. Chunonchi, qo'ng'iro'tlarga nisbatan tadqiqotchilar ko'proq etnografik guruh yoki subethnos terminlarini qo'llaydilar. Taniqli etnograf olim K. Shoniyozovning (1996) yozishicha, etnografik guruh – ma'lum bir etnosning (elatning yoki millatning ajralmas qismi, uning tarkibidagi bo'linmalardan) biri bo'lib, o'zining ba'zi xususiyatlari bilan til lahjasi, xo'jalik faoliyati, turmush tarzining ba'zi tomonlari bilan farq qilgan. Etnografik guruh, odatda, bir qabilaning, elatning yoki millatning ikkinchi bir xalq bilan aralashib, boshqa yerga borib, shu yerdagi xalq tarkibiga kirib, u bilan birga yashab kelishi natijasida vujudga keladi. Masalan, o'zbeklar tarkibidagi qo'ng'iro'tlar etnografik guruh hisoblanadi. Ba'zi vaqtlarda etnografik guruh o'z elidan, xalqidan ajralib, boshqa bir etnik birligiga

qo'shilishi natijasida ham vujudga kelgan. Bu xildagi etnoslarning katta qismi asrlar davomida kelib, mahalliy xalqning ichida yashab, ularning urf-odatlarini va madaniyatini qabul qilib, unga aralashib borgan. Ammo, bularning ma'lum qismi o'z tili, o'zligi va moddiy madaniyatidagi ba'zi xususiyatlarini saqlab kelgan.

Metodologiya

Etnologiyada "etnografik guruh" bilan birga "etnik guruh" termini ham qo'llaniladi. Etnografik guruhdan etnik guruhning farqini quyidagicha izohlash mumkin: o'z xalqidan (qabila, elat) ajralib chiqqan guruh boshqa xalq tarkibiga kirib, uzoq muddat yashab, shu xalqning tili, xo'jalik faoliyati, urf-odatlarini, turmush tarzini qabul qilib, unga batamom singib, o'zlarini shu xalq nomi bilan ataydigan bo'lib qoladi. Shu bilan bir qatorda, bu guruh o'z etnik nomini o'tmishda qaysi qabila, elatga mansub ekanligini, ba'zi an'analarini saqlab qolgan bo'ladi [1]. Masalan, qo'ng'iro'tlar XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrda o'zbek xalqining

tarkibida (o'z lahjalari, turmush tarzi, madaniy hayotidagi ba'zi xususiyatlarini saqlab qolganliklari tufayli) etnografik guruh bo'lgan bo'lsalar, qozoq, qoraqalpoq, turkman, boshqird va boshqa xalqlar tarkibida ular (qo'ng'iroq) etnik guruh hisoblangan.

Endi etnik mummolar bilan bog'liq ayrim nazariy-metodologik qarashlarni batafsilroq tahlil qilib o'tamiz.

1. Essensialistik (primordialistik) qarashlar. Primordializm (ingliz tilidagi "primordial" - "boshlang'ich", "dastlabki", "azaliy" degan so'zdan olingan) yo'nalishining mashhur namoyandalari qatoriga K. Girs, R. Gambino, U. Konnor, Yu. V. Bromley, E. Stuard, Van den Berg, L. Gumilev kabi xorijlik olimlar bilan bir qatorda K. Shoniyozov, A. Asqarov va U. Abdullayev kabi o'zbekistonlik tadqiqotchilarni kiritish mumkin. Bu yo'nalish tarafdorlarining ta'kidlashicha, etnos yoki etniklik tabiatda yoki jamiyatda ob'yektiv asosga ega bo'lgan aniq fenomendir. Aynan mazkur qarash tarafdorlarini ijtimoiy-biologik va tarixiy-evolyusionistik yo'nalishlarga ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish tarafdorlari o'rganilayotgan ko'rinishni misoli keng qarindoshlar guruhidan iborat kishilar yoki insonlarni tabiat yoki ma'lum bir landshaft bilan aloqasi shaklida talqin qilishni taklif qilgan (Гумилев, 1993). Ikkinchi yo'nalish bo'lgan tarixiy-evolyusionistik yo'nalish tarafdorlari etniklikni madaniyat va tarix mahsuli tarzida, etnosni esa tarixiy tarkib topgan kishilar guruhi tarzida talqin qiladilar. Ular fikricha, etnos – aniq bir hudud, til, kelib chiqish, madaniyat umumiyligi, o'z-o'zini etnik anglash va o'z etnik nomi (etnonimi)ga hamda o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan kishilar guruhidir (Бромлей, 1983).

Etnosning shakllanishidagi eng muhim alomatlardan biri – mazkur etnosga mansublikni idrok etish, ya'ni etnik o'zlikni anglash hissidir. Etnik o'zlikni anglash hissi mazkur xalqqa

tegishli fuqarolar tomonidan o'zlarining kelib chiqish tarixi va tarixiy taqdirlari umumiylik to'g'risidagi tasavvurlar asosida shakllanadi. Masalan, ma'lum bir qism qo'ng'iroqlar turli mamlakatlarda yashasalar-da, o'zlarini tarixiy vatanlari bilan bog'laydilar. Shu bois ular orasida "Arqa jurt" tushunchasi XX asrning 70 – 80 yillarigacha saqlanib qolgan. Qolaversa, har bir etnik jamoaga mansub kishilar o'zlarini boshqa guruhga mansub odamlardan "biz" va "ular" degan antitezis asosida ajratib talqin qiladilar (Аширов, 2007).

Etnos nazariyasi borasida mashhur turkiyshunos olim L. N. Gumilev (1993) esa aksincha: "Etnos ijtimoiy emas, balki biogeografik hosiladir. Etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani bois undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi", – deb ta'kidlaydi. Shuningdek, ayrim mualliflar (ayniqsa L. N. Gumilev va Yu. V. Bromley) etnos odamlar ijtimoiy hayotining birmuncha universal shakli bo'lgan va bo'lib qoladi, har bir kishi u yoki bu etnos nazariyasiga alternativ qarashlar va konsepsiyalar mavjudligi yoki zamonaviy G'arb va Yevropadagi ayrim maktab vakillari etnos nazariyasini keskin tanqid qilayotganligi, hatto ba'zi nazariyotchi tadqiqotchilar ushbu nazariyani butkul rad etishlarini ta'kidlab o'tish o'rinlidir.

Ayrim qarashlarga ko'ra, ko'plab odamlar o'zlarini u yoki bu etnosga tegishli deb hisoblamaydilar. Ularning ijtimoiy o'ziga xosligi, o'z navbatida, davlatga yoki diniy jamoaga mansubligiga qarab ham aniqlanadi. Umuman olganda, so'nggi vaqtlarda modernizmdan keyingi falsafaga asoslangan zamonaviy etnologiya fanida etnosga quyidagicha ta'rif beriladi: Etnos – bu umumiy nom (etnonim)ga, madaniyatda umumiy o'xshashliklarga ega bo'lgan, jamoaviy tarixiy tafakkurga va kelib chiqish tarixini umumiy mifologik tarzda tasavvur etuvchi, o'zlarini ma'lum bir hudud bilan bog'liq hamda hamfikir deb biluvchi

kishilar guruhidir. Chunonchi, bunda oldingi nazariyalarga asos bo'lgan hududiy va tarixiy jarayonlar bilan bog'liq tarzdagi ob'yektiv ma'lumotlar emas, balki sub'yektiv jihatlar: jamoaviy tafakkur, mifologiya, tasavvur etish muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning so'nggi choragiga kelib "etnos" nazariyasi g'arb va rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan jiddiy tanqid ostiga olindi (Brubaker, 1997). Jumladan, konstruktivizm tarafdorlaridan biri V.A. Tishkov (1996) etnos nazariyasining asosiy tanqidchilaridan bo'lib, etnos bilan bog'liq nazariy-metodologik qarashlarni noan'anaviy usulda tahlil qilish asnosida keskin tanqid qiladi. O'z navbatida, rossiyalik etnolog S.V. Cheshko (2014) ham etnosning kelib chiqish asosi hozirgacha mavhumdir, deb xulosa bildirgan.

2. Konstruktivizm. Ushbu yo'nalishning asosiy tarafdorlari ko'proq xorijlik B. Anderson, E. Gellner, F. Bart, E. Xobsbaum, M. Billig, F. Barta, V. A. Tishkov, V. M. Voronkov, B. C. Malaxov, O. Brednikova kabi olimlar hisoblanadi (Тишков, 2003). Aynan mazkur yo'nalishning dastlabki nazariy-metodologik asoslari ilk bora "plyuralistik jamiyat" muammosini ishlab chiqqan M. Smit va F. Bartlarning konsepsiyalarida olg'a surilgan. M. Smit etnologiya uchun an'anaviy qarashlar asosida ijtimoiy tuzilish bevosita madaniy farqlardan kelib chiqadi deb hisoblasa, F. Bart o'ziga xos "kopernikcha o'zgarish" qilib, "farqlar ijtimoiy tuzilma va o'zaro harakatlar natijasidir" – deb ta'kidlaydi.

F. Bart etnik o'zlikni anglashni etniklikning muhim alomatlarini sirasiga kirgizmaydi. Etnik o'zlikni anglash orqali shaxs o'zining etnik rolini namoyon qiladi va ma'lum bir guruh a'zosi tarzida tasavvur etadi. Shu bois ular etniklikni aniqlashda etnosga xos mada-niyatdan ko'ra uning hozirgi davrdagi farqli va guruhviy chegarasiga xos madaniy tavsifini hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi deb, hisoblaydilar.

Etniklik konsepsiyasini tahlil etishda etnolog V. S. Xan (2017) tomonidan ham ayrim amaliy ishlar amalga oshirilgan bo'lib, u etnos va etniklik nazariyalarining kelib chiqish tarixini xorijiy materiallar asosida etnologik nuqtai nazardan tahlil qilgan. Konstruktivistik qarash tarafdorlari etnos va millatning tarixiylik prinsiplari asosida paydo bo'lganligini butkul rad etadilar va bugungi kundagi zamonaviy etnoslar, jumladan, Markaziy Osiyo millatlari (milliy respublikalar ham) uzoq muddatli rivojlanish natijasida emas, balki sovet hokimiyatini mahalliy rahbarlar va ziyolilar ko'magida sun'iy ravishda barpo bo'lgan, degan g'oyani ilgari suradilar.

Etnolog A. Ashirovning (2005) ta'kidlashicha, bu fikr tarixiy voqelikdan ko'z yumishga, etnomilliy tarixdan voz kechishga qaratilgan bo'lib, mavjud nazariya hamda qarashlarning noto'g'ri qo'llanishidir.

Endi qo'ng'irotlar etnik tarixi bilan bog'liq ayrim nazariy muammolarga batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi tarkibida ko'plab urug', urug' birlashmasi, urug' tarmoqlari va ichki kichik bo'limlari (tira, to'por, to'p, ota, daha) nomlari bo'lib, ularning yasalishi va tuzilishida, tarkibi hamda nomlanishida umumiylik, o'xshashlik, yaxlitlik mavjud. Ularni umumo'zbek etnoni-miyasi yoki turkiy xalqlar etnonomiyasi bilan qiyoslab, tarixiy-qiyosiy usulda tadqiq qilish etnoslarning nomlanishidagi madaniy, ma'naviy, psixologik va boshqa ijtimoiy-sosial jarayonlarni to'g'ri aniqlash va belgilashga yo'l ochadi. Bir guruh, o'zbek urug'lari nomlari tarkibida -t/-at/-ot/-ut/-it qo'shimchasi mavjud: mang'it, kerayit, chuyut, markit/makrit, mesit/misit, qo'ng'iro't, qiyot, juyrat, uyrat, arlot, bayot, boyovut, o'ymovut, sayot, dug'lat, esat, burqut, chiljuvut, to'langit. Bu turga daxldor etnonimlar boshqa turkiy xalqlarga ham xos: boshqird, uyrot (oltoy), teet (qirg'iz), tang'ut (qozoq).

Qo'ng'irotlarning urug'-qabilalari tuzilishini o'rganishda antropo-loglarning zamonaviy nazariy qarashlarini inobatga olish va aynan mazkur qarashlar asosida tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy-etnografik adabiyotlardan ma'lumki, urug'chilik tuzilishi turli xil pog'onali bo'lgan. Jumladan, qabila birligi, qabila, urug', urug' bo'limlari yoki urug'chilik (avlod, urug', jins, otadosh, pusht, aymoq, jigardosh) mavjud bo'lgan.

Sovet davrida olimlar qabila, urug', xalq, millat atamalariga ta'rif va tavsif berishga harakat qilganlar. Chunonchi, V. P. Alekseyev (1962): "Kishilik jamiyatining iqtisodiy turmush taraqqiyoti, aholining o'sishi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga olib kelgan. Bu rivojlanish jarayonidan urug'chilikdan qabila birligiga olib keldi. Qabila bir necha qon-qarindosh urug'larning birlashmasidan tashkil topdi", – deb yozadi.

Umuman olganda, "qabila" so'zining ikkita ma'nosi mavjud:

- 1) qarindosh-urug'chilikka asoslangan qabilaga xos;
- 2) qabilalardan tashkil topgan, ammo qarindosh-urug'chilikka asoslanishi shart bo'lmagan.

Qabila atamasi tuzilmada qarindosh-urug'chilik ustun bo'lgan va uning a'zolari madaniy (urf-odat, kelib chiqishi, sheva va tilda) jihatdan boshqalaridan ajralib turadigan guruhlar uchun ham qo'llanishi mumkin.

Yuqori Qashqadaryo vohasi aholisi etnik tarkibini tadqiq qilgan Q. Kubakov fikricha, qabila bir qancha urug'lardan tashkil topgan etnik birlik, urug' – bir jamoa yoki bitta avlodga bog'langan kishilar guruhidir. Ana shu nom bilan bu jamoa boshqalarga ham ma'lum bo'lgan.

Urug' bo'limlari o'zlarini bir mustaqil avlod – pusht, nasl, tug'ishgan deb yuritadilar hamda bitta uruqqa bog'laydilar.

Odatda, ko'pchilik qishloqlar aholisi urug'-qabilachilik nima ekanligini tushunmasdan "hammamiz bir elmiz" deb ta'kidlaydilar. Shuningdek, "el", "yurt" tushunchalari urug' nomlari bilan bog'liq tarzda, ya'ni "qo'ng'irot eli "yoki" Boysun – qo'ng'irot yurti" tarzda ham qo'llaniladi.

Qo'ng'irotlar urug'chilik munosabatlarini izohlashda, asosan, urug' va ota iboralarini qo'llaganlar. Chunonchi bu borada Janubiy O'zbekiston qo'ng'irotlari o'z urug'lari genealogiyasini bayon qilishda ota yoki to'p iborasini, ya'ni "12 ota oyinli"(ayinli, oynni), "6 to'p tortuvli" tarzida qo'llaganlar. Ular juda kam holatlarda shox (tarmoq) so'zlarini ishlatganlar.

Xullas, Janubiy O'zbekistondagi qabilaviy tuzilma konsentrik, ya'ni bitta umumiy markazga ega bo'lgan halqa, doira ko'rinishida tasavvur qilingan. Qabilalar bir nechta guruhlarga, ular esa, o'z navbatida, kichik-kichik bo'g'inlarga bo'lingan. Birlashgan qabilalardan konfederatsiyalar (qabilalar ittifoqi) tashkil topgan.

Elat – bu o'zlari bo'lak-bo'lak bo'lib yashagan avlodlar.

Urug' – bir bobo va bir momodan tarqalgan ajdod vakillari bo'lib, qo'ng'irotlarning barchasi o'zlarini Gudraybiy Qo'ng'irot otaga bog'laydi va ular 66 ota urug' bor deb biladilar.

Aymoq – eng kichik urug' shoxobchasi bo'lib, qo'ng'irotlar tasarrufida 158 ta shoxobcha, ya'ni aymoq bor deb sanaladi (Usmonov, 2020).

Urug' va qabilalarning yuqori darajadagi birlashuvida ko'p hollarda ularning kelib chiqishi borasidagi munosabatlar saqlanib qoladi.

Tadqiqotchi A. Malikovning (2007) fikricha, ko'proq siyosiy xarakterga ega, o'zaro ichki munosabatlari, geterogen tarkibi turlicha bo'lgan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qo'ng'irotlar tuzilmalarini belgilashda konfederatsiya atamasini qo'llash o'rinli bo'ladi.

Biz uchun muhim bo'lgan atama bu – urug' hisoblanadi. R. Tapper urug'larni aniqlashning quyidagi ba'zi jihatlarini tavsiflagan. "Urug'larning asosiy manfaatlaridan biri bu – chorva mollarini birgalikda boqish huquqi bo'lgan. Urug' a'zolari bir jamoa bo'lib yashagan, birgalikda ko'chgan va ma'lum bir diniy marosimlar o'tkazilayotganda bir yerga yig'ilishgan".

Tahlil va natijalar

Dashti Qipchoq o'zbeklarining ayrim guruhleri (masalan, nayman, uyg'ur, mang'it, qo'ng'iro't, qushchi, ming va b.) Movarounnahr va Xorazm egallanmasdan ancha oldin mazkur hududlarga kelib o'rnashgan edilar. Ularning boshqa guruhleri esa XVI asr davomida ko'chib o'tganlar. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, qo'ng'iro'tlar Movaroun-nahr va Xorazm hududlariga kelib o'rnashgan kezlarda ko'chmanchilik an'analari va urug'-qabilachilik tartiblariga rioya qilishgan. Demak, biz bu mulohazalardan shunga amin bo'lamizki, qo'ng'iro'tlar Movarounnahr va Xorazmga ishlab chiqarish va davlat boshqaruvining yangi ko'rinishlarini joriy etmaganlar. Ular mintaqada Temuriylar davrida hukmronlik qilgan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilganlar.

Qo'ng'iro'tlar Movarounnahr va Xorazmga kelib o'rnashgandan keyin bu hududga oldinroq kelib o'rnashgan urug'doshlari bilan aralashib ketgan. Vaqt o'tishi bilan ular mahalliy aholi bilan yaqinlashib, muqim yashovchi o'zbeklarga xos moddiy va madaniy hayotni o'zlashtirgan va o'z navbatida, ular mahalliy aholi tili, madaniyati, turmush tarzi, xo'jalik an'alariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Ular Dashti Qipchoqda yashaganlarida qipchoq yoki qipchoq-o'g'uz lahjasida so'zlashganlar. Bu lahjalar Dashti Qipchoq o'zbeklari ko'chib kelmasdan ancha oldin Movarounnahr va Xorazmda ham keng tarqalgan edi. Dashti Qipchoqdan XVI asrda yangi etnik guruhlarining

ko'chib kelishi bilan bu lahjada so'zlashadiganlar soni yanada ko'paygan. Mazkur etnik guruhlarining o'troqlashish jarayonida ularning tili arab va tojik so'zlari bilan boyigan. Dashti Qipchoq o'zbeklari xususan, ularning o'troqlashgan guruhleri – mahalliy o'zbek aholisi XIX asrning birinchi yarmida yashagan qo'ng'iro'tlarning har bir nufuzli urug'i alohida bir hududga ega bo'lgan va o'zlari yashagan hududda xo'jalik ishlarini yo'lga qo'yishgan. Jamoaning mol-mulkiga mas'ul va boshqa tashkiliy ishlarga bosh-qosh bo'lish urug'ning eng nomdor kishilari hisoblangan biy yoki beklar zimmasida bo'lgan. Beklik ajdoddan – avlodga meros tariqasida o'tib kelgan. Ba'zida esa ular markaziy amirlar tomonidan tayinlangan va hukmdorlarga tobe bo'lishgan.

XIX asr boshlarida yashab o'tgan qo'ng'iro't urug'idan bo'lgan Mulla Murod Anna boy o'g'li qabila va urug' so'zlarini belgilashda "qavm" atamasidan foydalangan. O'zbek xalqi xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lgan "Alpomish" dostonida "qavm" va "qarindosh" so'zlari sinonim so'zlar sifatida bayon qilingan. Shuni ta'kidlash joizki, "qavm" atamasi qo'shni Afg'oniston o'zbeklari orasida ham keng tarqalgan.

O'zbeklar uchun oilasining yetti avlodini bilish muhim ahamiyatga ega bo'lgan va bu ular uchun yozilmagan qonun hisoblangan. Hozirgi kunga kelib bu qoida o'z kuchini birmuncha yo'qotgan. Ammo biz tadqiq qilgan Janubiy O'zbekistonning qo'ng'iro'tlar yashaydigan ko'plab qishloqlarida yetti avlodi, yetti pushtini bilish shart hisoblangan. Kimda-kim o'z ajodlarini bilmasa, jamoa unga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan va jamoaviy tadbirlardagi eng mas'uliyatli vazifalar yuklanmagan.

O'zbek urug'larining ayrim bo'g'inlari, xususan, XX asrning 60–70 yillarida Qarshi, Nishon cho'llarini o'zlashtirish munosabati bilan cho'lga majburan ko'chirilgan qo'ng'iro'tlar vaqt o'tishi bilan o'zlarining qaysi urug' va qabilaga

mansubligini unutishgan va bu hududga ko'chib kelgan boshqa aholi bilan aralashib ketgan. Ammo qo'ng'irotlarning asosiy qismi bugungi kunda ham o'zlarining qaysi urug' va urug' shoxobchaga mansubligini yaxshi bilishadi.

Tarixdan ma'lumki, siyosiy voqealar, urushlar, tirikchilik dardida hamda boshqa maqsadlarda amalga oshirilgan ko'chishlar davrida turli urug' va qabilalar bir-birlariga qo'shilib ketishgan (odatda, kam sonli kuchsiz guruhlar kuchlilariga alohida bir urug' yoki kichik bo'g'inlar sifatida qo'shilgan). Shuning uchun ham ko'plab urug', qabilalar guruhlarida kelib chiqishi turlicha bo'lgan urug' va qabilalar vakillarini uchratish mumkin. Shunday qilib, ko'plab o'zbek urug'lari etnik jihatdan bir butunlikni tashkil etmagan. Ular kelib chiqishi turlicha bo'lgan avlodlarning qo'shilishi natijasida bir umumiy urug' nomi ostida birlashishgan. Shundan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, urug' a'zolarining bir-birlari bilan qon-qarindoshchiligi to'g'risida gapirish bir oz bahslidir. Tadqiqotchi A. Malikovning (2007) yozishicha, ma'lum bir urug'larni faqat qadimiy an'analar haqida xayoliy taassurotlargina birlashtirgan bo'lib, bunday ta'rif qo'ng'irotlarga ham taalluqlidir.

Darhaqiqat, ijtimoiy, iqtisodiy qarama-qarshiliklar, o'zaro ichki nizolar oxir-oqibat urug'larning bo'linib ketishiga va ularning o'rnida kichik-kichik mustaqil guruhlar paydo bo'lishiga olib kelgan. Biroq, ichki nizolar ta'sirida tarqalib ketgan urug'lar vakillari o'zlari avval yashab kelgan hududda o'z qabilalari tarkibida qolishlari mumkin bo'lgan. Lekin, ajralib chiqqan har bir guruhning o'z ko'chish manzili, yaylovi, qishlov joyi va oqsoqoli bo'lishi lozim bo'lgan. Bu guruhlar o'zlariga qo'shni bo'lgan boshqa urug', hatto qabilalarga qo'shilishlari ham mumkin bo'lgan. Bunday holatlarda ular alohida to'p (urug' tarkibida) yoki urug' (qabila tarkibida) ko'rinishida faoliyat yuritishgan. Urushlar va urug'lar o'rtasidagi

kelishmovchiliklar natijasida urug'larning tarqalib ketishi XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar odatiy hol hisoblangan. Har qanday holatda ham mag'lub bo'lgan qabilalar boshqa joylarga ko'chib ketishgan yoki g'olib tomonning muruvvatiga sazovor bo'lib, o'zlarining avvalgi joylarida yashab qolishgan. Bunda ular turli siyosiy uyushmalarga birlashishlari ham mumkin bo'lgan.

Ajralib chiqqan urug' bo'g'inlari, odatda, o'zlarining avvalgi urug'lari nomlarini saqlab qolishga harakat qilishgan. Ammo, ularning bir qismi, asosan, keyinroq tashkil topganlari urug'lariga yangi nom qo'yishgan. Bunda ular o'tgan ajdodlari urug'lari nomlaridan foydalanishgan yoki o'zlaricha bir nomni tanlashgan. Bundan tashqari, yashab o'tgan joylari nomidan kelib chiqib ham yangi atamalardan foydalanilgan.

Tadqiqotchi A. Malikovning (2007) yozishicha, "Alpomish" dostonining Zarafshon vodiysi hududida tarqalgan talqinida Surxondaryodagi talqinidan farqli o'laroq, qo'ng'irotlar o'z urug'ining bo'g'inlariga unchalik ahamiyat berishmaydi. Qolaversa, O'rta Zarafshon vodiysida yashayotgan o'zbeklarning qo'ng'irotlar urug'iga mansub aksariyat keksa avlodlari bugungi kunga kelib o'zlarining urug' bo'g'inlari nomlarini bilishmaydi. Buxoro vohasidagi ayrim qishloqlarda yashagan qariyalar XX asrning o'rtalarigacha ham o'z ajdodlarining kelib chiqishi tarixini, qaysi urug'ga mansubligini yaxshi bilishgan. Ammo, bugungi kunga kelib ularning barchasi deyarli unutilgan.

Urug'larga, xuddi qabilalarda bo'lgani kabi kayvonilar (yoshi ulug', ko'pni ko'rgan, ko'p narsani biladigan, uddaburon kishi yoki bek, biy, oqsoqol deb atalgan kishilar) yetakchilik qilganlar. Urug' oqsoqoligiga nomzodlar ko'p hollarda kayvonilar tomonidan ko'rsatilgan. Urug' oqsoqollarining jamoani boshqarishda huquqi ancha cheklangan. Ularning qabila

oqsoqoli (agar urug' qabila tarkibida bo'lsa) hamda kayvonilar ruxsatisiz mustaqil ravishda iqtisodiy yoki siyosiy xarakterga ega bo'lgan biron-bir qaror qabul qilishga vakolatlari bo'lmagan. Ular faqat o'z urug'lari doirasida to'yyu tantanalar, marosimlar o'tkazishgan, jamoat ishlarini (hashar va shu kabilar) tashkil etishga bosh-qosh bo'lganlar. Ushbu tadbirlarni o'tkazish oldidan oqsoqol urug'ning hurmat-e'tiborli kishilari bilan maslahatlashib, ularning fikrlarini inobatga olgan.

Umuman olganda, oqsoqol urug' orasida har ishni bajarishga qobil, tajribali kekxa kishi bo'lgan. Aynan uning aytgan gaplarini urug' a'zolarining barchasi so'zsiz bajarishi shart bo'lgan. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida yashovchi qo'ng'irotlarda oqsoqolning bajaradigan asosiy ishlari o'zaro maslahatlashib ko'chish vaqtlarini belgilash, o'tovlarni qurish uchun qulay bo'lgan yerni, urug'larga tegishli bo'lgan yaylovlarni va ularning chegaralarini aniqlash bo'lgan. Aynan mazkur tartiblarni yoki urug' orasida qabul qilingan o'zaro ichki tartib-qoidalarni buzgan urug' a'zolari o'zaro birgalikda muhokama qilingan. Odatda, gunohkor kishi jazolangan yoki jarimaga tortilgan. Oqsoqolning chiqargan qarori qayta ko'rilmagan. Aynan qabul qilingan odatga ko'ra, uning qarorini barcha urug' a'zolari eshitgan. Agar bir necha urug'lar orasida kelishmovchiliklar va tortishuv bo'lsa, urug'

oqsoqollari birgalikda bu muammolarni hal qilganlar.

Xulosa

Xullas, qo'ng'irotlar etnik tarixi bilan bog'liq ayrim nazariy-metodologik qarashlar tahlili yakuni tarzida shuni ta'kidlash joizki, etnos va subetnoslar bilan bog'liq qarashlar o'z yechimini topgan muammo deb bo'lmaydi. Aynan bugungi kunda etnos va etniklik muammosi doirasidagi qarashlar mustaqil ikki qarama-qarshi – primordialistik va konstruktivistik nazariyalari asosida mujassamlashgan. Qolaversa, etnologiyada hozirgi kunga kelib etnos va etniklik muammosi doirasida mukammal konsepsiya mavjud emas. Bizningcha, yaqin kelajakda etniklikka oid tadqiqotlar yanada bahsli tarzda davom etadi va hozirgi mavjud qarashlar asosida yangi nazariyalar yaratilsa ajab emas.

Yuqoridagi mulohazalardan yana shunga amin bo'ldikki, qo'ng'irotlar etnik tarixiga subetnosning eng qadimgi davrlaridan boshlab bir qancha tarixiy bosqichlarni o'tib, to bizgacha davom qilib kelgan katta davr kirgan. Boshqacha aytganda, qo'ng'irotlarning etnik tarixi mazkur subetnosning qadimda va ilk o'rta asrlarda qadim ajdodlari, ularning O'zbekistonning janubiy hududlariga kirib kelib, joylashishi hamda mahalliy aholi bilan o'zaro etnomadaniy munosabatlarga kirishishi hamda uning keyingi taraqqiyot tarixini o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Brubaker R. Nationalism Reframed: Nationhood and the National Question in the New Europe. – Cambridge, 1997
2. Алексеев, В. П. (1962). Род, племя, народность, нация как историческая форма общность людей. Москва.
3. Аширов, А. (2005). Этнос муаммоси замонавий тадқиқотчилар талқинида. *О'zbekiston tarixi*, (3), 51.
4. Аширов, А., & Атаджанов, Ш. (2007). *Этнология*. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий давлат кутубхонаси.
5. Бромлей, Ю. В. (1983). *Очерки теории этноса*. Москва.

6. Гумилев, Л. Н. (1993). Этносфера. История людей и история природы. Москва.
7. Маликов, А. М. (2007). Узбеки группа кунграт долине Зерафшана в XIX – начале XX в. Самарканд.
8. Тишков, В. А. (1996). О нации и национализме. Свободная мысль, (3).
9. Тишков, В. А. (2003). Реквием по этносу: исследования по социально-культурной антропологии. Москва.
10. Усмонов, М. (2020). Ўзбекистон қўнғиротлари этник тарихи, хўжалик хусусиятлари ва идентиклик трансформацияси. Тошкент: Voris–nashriyot.
11. Хан, В. С. (2017). К постановке вопроса о генезисе этничности. В Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари (с. 33–40). Тошкент.
12. Чешко, С. В. (2014). Вспомнить об этносе? Вестник антропологии, (2), 22–24.
13. Шониёзов, К. (1996). Ўзбек халқи шаклланиш жараёнининг айрим масалалари. ЎИФ, (6), 79–87.